

USMONIYLAR TARIXIGA BIR NAZAR (USMON I)

Navruzova Aziza

Namangan Davlat Universiteti tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi.

telefon: +998-93-682-06-33.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10996794>

Annotatsiya. Mazkur maqolada turklarning Osiyo qit'asiga kirib kelishi, joylashishi, Usmoniyalar davlatiga asos solinishi uning ichki va tashqi siyosati, bosqinchilik yurishlari va bu haqida ko'plab ilmiy izlanish olib borilib, o'r ganib chiqilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Turklar, Kichik Osiyo, ichki, tashqi, Bursa, Sog'ut, adolat.

OTTOMAN HISTORY AT A GLANCE (USMAN I)

Abstract. This article discusses the entry and settlement of the Turks into the Asian continent, the founding of the Ottoman state, its internal and external policies, invasion campaigns, and the fact that a lot of scientific research has been conducted and studied about this.

Key words: Turks, Asia Minor, internal, external, Bursa, Sogut, justice.

ИСТОРИЯ ОМСАНЫ КРАТКИЙ ВЗГЛЯД (УСМАН I)

Аннотация. В данной статье рассматривается проникновение и расселение тюрков на Азиатский континент, основание Османского государства, его внутренняя и внешняя политика, вторжения, а также тот факт, что по этому поводу было проведено и изучено множество научных исследований.

Ключевые слова: тюроки, Малая Азия, внутреннее, внешнее, Бурса, Согут, правосудие.

Turklarning dastlab Kichik Osiyoga kirib kelishi Saljuqiylar davridan boshlangan. Yevropa manbalarida "Turkiya" so'zi birinchi marta 1190-yilda salibchilardan biri tomonidan Kichik Osiyodagi turkiy qabilalar bosib olgan yerlarga nisbatan qo'llanilgan. Ayrim ko'chmanchi turkiy qabilalar tomonidan milodiy IV asrdan boshlab Vizantiya imperiyasining Kichik Osiyodagi viloyatlaridan paydo bo'lganligi haqida yozma manbalarda qayd qilingan bo'lsa-da Saljuqiylar boshchiligidagi og'uz-turkman qabilalarining Old Osiyoda paydo bo'lishi va mustamlakalarga ega bo'lishi XI asrdan boshlanadi. Qisqa vaqt davomida Vizantiyaga qo'shni hududda Buyuk Saljuqiylar davlati tashkil topadi. 1038-1308 yillar davomida boshqariladi. XI asr oxiridan boshlab Buyuk saljuqiylar davlatining Mo'g'ullar bilan munosabati ancha sovuqlashadi va parchalanish jarayoni yuz beradi. Shu davrdan boshlab Sajuqiylar davlati ancha zaiflashib qoladi va bir nechta mustqail bekliklarga bo'linadi. Aynan shu mustaqil bo'layotgan bekliklar orasida Ko'niyaga tobe bo'lgan Usmoniyalar bekligi ham bor edi.

Usmoniyalar hududiga Kichik Osiyo, Bolqon, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qirimda hukmronlik qilayotgan turk sultonlari sulolasi edi.

Usmoniyalar 1299-1922-yillarda hukmronlik qilgan. Usmonli turk imperiyasini boshqargan. Sulola nomi uning asoschisi Usmon I ibn Erto'g'rul nomidan olingan. Movorounnahr va Xurosonda yashovchi og'uz turklarning qay (qayig') urug'iga mansub qavm Erto'g'rul

boshchiligidagi XIII asr 20-yillari mo'g'ullar istilosiga davrida Kichik Osiyoga borib o'rashib qolishadi. Ular saljuqiyarning Ko'niya sultonligi hududiga borib o'rashadi va Saljuqiyalar kuchsizlanib qolgach, beylik mustqail davlatga aylanadi. Erto'g'rul beklik boshqaruvini 1281-yilda o'g'li Usmon I G'oziyga topshiradi. Bu beklik 1299-yilda o'zini mustaqil davlat deb e'lon qiladi. Keyinchalik bu davlat turk sultonligi nomi bn dunyoga tanilib, o'rta asrlarda jahondagi qudratli davlatlardan biriga aylangan. Sulola asoschisi Usmonbey (1258-yil Syogut; Eskishahar yaqinida tug'ilgan. 1326-yil Bursada vafot etgan) turk sultoni edi.

Hukmronlik yillari 1299-1326-yillarda davlatniadolat bilan boshqaradi. Harbiy sarkarda va urug' boshlig'I oilasida tug'ilgan. Otasidan harbiy ishni puxta o'rganadi. 1281-yilda otasi Erto'g'rul Ko'niyaning shimg'arbiy chegara hududida mulkka ega bo'ladi. Bu paytda ko'niya tanazzulga uchrab, bir nechta beklikka bo'linib ketgan edi. 1289-yilda Usmon I ning bey unvoni Ko'niya sultoni tomonidan e'tirof etilib, unga hokimiyat ramzi bo'lgan nog'ora va bunchuk berilgan.

Usmoniyalar davlatining dastlabki poytaxti Sog'ut (1302-1326) edi. Usmon o'z davlatini rivojlantirish maqsadida ichki siyosatda savdo-sotiqni rivojlantitsh va shaharlar hayotini jonlantirish borasida islohotlar o'tkazadi. Ichki boshqaruv o'rnatiladi. Usmoniyalar tangasi zarb etila boshlanadi, tanganing bosilishi shu davlatning mustaqillikni anglatar edi, haqiqiy armiyaga asos solinadi va uning asosiy qismini yancharlardan iborat edi, undan tashqari kavaleriya qayta tiklanadi.

Usmon tashqi siyosatda asosan qo'shinga tayanar edi. Usmon G'oziy davridayoq qo'shni Vizantiya imperiyasiga qarshi bir necha bor hujum qilinib Qoracha Hisor, Yor Hisor va Bursaning atroflari egallanadi. Tez orada Anadoludagi boshqa turk beylari ham Usmon I tomonidan bo'ysundirilari. Garchi Usmon hayotligidayoq Bursani egallay olmagan bo'lsada, uning o'g'li O'rxon davrida Bursa uzil-kesil egallanadi va shu paytda sharqdagi Bolu shahri ham Usmoniyalar davlatiga taslim bo'ladi. Shu davrdan boshlab Usmoniyalar davlatining poytaxti Bursa (1326-1365) etib belgilanadi. Usmon adolatli davlat qurish uchun ko'p harakat qildi va buni uddasidan chiqdi. Usmon qurban davlat qariyb 6 asr davomida Usmoniyalar nomi bilan shuhrat qozondi. Usmoning vorislari davrida ham davlat adolat va oqilona siyosat bilan boshqariladi.

Usmon qurban davlat ko'p yillar davomida juda ko'p hududlarni bosib oldi va adolat bilan boshqarilganligi sababli boshqa davlatlarga nisbatan ko'proq yashaydi. Biroq XVII asr oxiridan boshlab sultonlikning harbiy, siyosiy va iqtisodiy qudrati astasekin zaiflasha boshlagan.

Yevropa mamlakatlari o'zaro ittifoq tuzib, Usmonli imperiyasiga qarshi kurashga chog'langanlar. Vena atrofida bo'lgan ikki jangda turk qo'shni Avstriya, Olmoniya, Polshaning birlashgan armiyasiga qarshi 1683-yil Venaga bo'lgan yurish muvaffaqiyatsiz yakun topgach, Imperiya sekin-asta tanazzulga yuz tutishni boshladidi. Muntazam davom etib turgan Rossiya - Turkiya urushlari (1676-1681, 1684-1699, 1710-1711, 1768-1774, 1787-1791, 1807-1812, 1828-1829, 1853-1856, 1877-1878, 1914-1916 va boshqalar) oqibatida Usmonli imperiyasi asta-sekin zaifashib borgan. Sulton Abdulmajid islohotlar (Tanzimat) o'tkazish (1839) orqali, bir tomonidan, sultonlik inqirozini to'xtatishga, ikkinchi tomonidan, yangi turk ziyorolarini (ular o'zlarini yangi usmonlilar deyishgan) shakllantirishga muvaffaq bo'ldi. Bu paytda bo'lgan Qrim urushida Turkiya o'zining eski raqibi Rossiya imperiyasi ustidan g'olib chiqdi hamda Qora dengiz va Dunay daryosidagi mavqeini qayta tikladi. Ichki ziddiyatlar imperiyani parchalab yubormasligi uchun

Usmoniyalar yangi islohotlar o'tkazdi. Ulardan biri 1870-yildagi Tanzimat islohoti hisoblanib, u mamlakatni isloh qilish va har bir fuqaroga teng huquq berishni ko'zda tutardi.

Ammo endi juda kech bo'lgandi. Yevropaliklar va ayniqsa, Bolqondagi aholi Usmoniyalar hukmronligi ostida yashashdan charchagandi. Chunki G'arbiy Yevropaga solishtirganda ahvol nihoyatda og'ir, hududlar rivojlanmagandi. Juda ko'p isyonlardan keyin bu imperiya bilan yaxshi hayotga erishishga odamlar endi ishonmay qo'ygandi. Endi ularda kuchli millatchilik hissi uyg'ongan edi.

Butun Bolqon yarimoroli turli etnik guruhlarga bo'linib ketgan va ularning har biri ozodlikka chiqishni xohlardi. Ozodlik kurashlarining ba'zilarini G'arbdagi kuchlar qo'llab-quvvatladi. 1821-yili ruminlaradolatsiz hokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Yunonlar ham ozodlik uchun kurash boshladi va mustaqillikka erishdi. Siyosiy millatchilik tobora avj olib bordi. 1850-yildan keyin esa Serbiya, Bolgariya va Ruminiya to'liq mustaqillikka intila boshladи.

1859-yilda Ruminiya knyazliklari yagona shaxs qo'li ostida birlashdi. Qo'zg'olon Bosniya va Bolgariyada bo'lib o'tdi. Tanzimat va 1876-yilda qabul qilingan dastlabki konstitutsiya sulton Abdulhamid II tomonidan bekor qilingach (1878), mamlakatda istibdod davri boshlangan. Bu davrda sultonlik Yevropa davlatlariga iqtisodiy jihatdan qaram bo'la boshlagan. Faqatgina Usmonli imperiyasi birinchi jahon urushida mag'lub bo'lganligi tufayli 1920- yil Sevr shartnomasiga ko'ra boshqa Yevropa davlatlari tomonidan bo'lb olinishi ko'zda utiladi va 1922-yilda butunlay imperiya sifatida tugatiladi.

1922-yil 1-noyabrda Turkiya Buyuk Millat Majlisi sultonlikni tugatish to'g'risida qaror qabul qildi. Mustafo Kamol (Otaturk) bosqinchilarga qarshi ko'tarilgan milliy ozodlik harakatiga rahbarlik qilib, sultonlikning asosan turklar yashaydigan hududi — Kichik Osiyo va qisman Yevropada 1923-yil 29-oktyabrdan Turkiya jumhuriyatiga asos soldi.

REFERENCES

1. N.Todorov "Балканский город XV-XIX веков" Toshkent-2017, bet-19
2. G.A.Xidoyatov , X.G.Gulyamov "Всемирная история" Toshkent-1999, bet-254
3. Sarimsokov Abdulatip Abduraximov, Dexkanov Narimon Burxanjonovich "Jahon tarixi" (Osiyo va Afrika mamlakatlarining o'rta asrlar tarixi) Toshkent-2021, bet-148
4. N.Abdullayev, Z.Qodirov, X.Hamidov, SH.Ikromov "Turkiya tarixi" Toshkent-2018, bet-123
5. Akobir Matlyubov, Alisher Egamberdiyev, Firuza Ostanova, Umirzoq Raxmatov "Sulola tarixi" Toshkent-2016, bet-117
6. Salimovich, Murodov H. "Tourism Development in Bukhara During the 1990s and Its Problems." *International Journal on Integrated Education*, vol. 5, no. 6, 2022, pp. 298-302.
7. Salimovich, M. H. (2023). MARKAZIY OSIYO TURIZM SANOATI RIVOJLANISHIDAGI YUTUQ VA MUAMMOLAR. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(4), 175-184.
8. Мурадов, Х. (2023). ОБЗОР ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/8).

<https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N05>

9. Salimovich, M. H. (2023). BUXORO TURIZMI RIVOJIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING ORNI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 115-122.
10. Ashurova, G. S., & Murodov, H. S. (2023). ISSUES OF EDUCATION IN THE MIDDLE AGES (IX-XII) CENTURIES AND DEVELOPMENT HISTORY. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(12), 238-240.
11. Ismigul, I., & Halim, M. (2023). Mustaqillik arafasida Ozbekistonda turizm sohasining holati. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 256-266.
12. Murodov Halim Salimovich. (2023). BUXORO TURIZMI VA MILLIY HUNARMANDCHILIK. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 93–96. Retrieved from <https://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/149>
13. Salimovich, M. H. (2024). SANATORIYA-KURORT MUASSASALARI FAOLIYATINING BUXORO TURIZMI RIVOJIDA ORNI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 199-204.
14. Salimovich, M. H. (2024). The Role of the Cultural Sector in the Development of Bukhara Tourism. *Miasto Przyszłości*, 45, 729–735. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2725>
15. Murodov, H. (2024). VISA POLICY DURING THE ACTION STRATEGY PERIOD. *Modern Science and Research*, 3(2), 637–644. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30326>
16. Халим, М. (2022). РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 1(4), 13. <https://doi.org/10.47390/B 1342142022N1>